



UZBEKISTON'S STATE CHARACTERISTICS AND INDUSTRY INDEX OF IMPORTANCE OF HUMAN BEINGS

Arslon Mansurov

Captain, independent researcher

Academy of the Ministry of Internal Affairs

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Welfare state, legal framework, Social Development Index, opportunities, social policy, civil rights, fair judicial system, social reforms, rule of law, educational opportunities, social equality.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article is devoted to the issue of the opportunities of Uzbekistan as a social state in the Social Development Index. The study discusses the concept of a social state, its legal foundations and the place of the Republic of Uzbekistan in the Social Development Index, the socio-political reforms being implemented in our country, the social rights of citizens and mechanisms for their protection, as well as the principles of social justice and equality. The development directions of Uzbekistan as a social state are analyzed in comparison with international experience, and the main factors and prospects of social development are studied. The results of the study highlight the legal aspects of conducting a fair and inclusive social policy in the country, and the reforms that need to be implemented in the future, as well as the aspects of their development, are analyzed from a scientific and practical point of view.

O'ZBEKISTON IJTIMOY DAVLAT SIFATIDA IJTIMOYIY TARAQQIYOT INDEKSIDA IMKONIYATLAR YO'NALISHI BO'YICHA KO'RSATKICHLARI

Arslon Mansurov

Kapitan, mustaqil izlanuvchi

IIV Akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, huquqiy asoslar, Ijtimoiy taraqqiyot indeksi, imkoniyatlar, ijtimoiy siyosat, fuqarolik

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida Ijtimoiy taraqqiyot indeksida imkoniyatlar masalasiga

huquqlari, adolatli sud tizimi, ijtimoiy islohotlar, huquqiy davlat, ta'lim imkoniyatlari, ijtimoiy tenglik.

bag'ishlangan. Tadqiqotda ijtimoiy davlat tushunchasi, uning huquqiy asoslari va O'zbekiston Respublikasining Ijtimoiy taraqqiyot indeksidagi o'ri, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, fuqarolarning ijtimoiy huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari, shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari muhokama etiladi. O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi rivojlanish yo'nalishlari xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilinib, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillari va istiqbollari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari mamlakatda adolatli va inklyuziv ijtimoiy siyosat yuritishning huquqiy jihatlarini yoritadi va kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar bo'yicha, shuningdek, ularni rivojlantirish jihatlarini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

ХАРАКТЕРИСТИКА ГОСУДАРСТВА УЗБЕКИСТАНА И ОТРАСЛЕВОЙ ИНДЕКС ЗНАЧИМОСТИ ЧЕЛОВЕКА

Арслон Мансуров

Капитан, независимый научный сотрудник

Академии МВД

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Государство всеобщего благосостояния, правовая база, индекс социального развития, возможности, социальная политика, гражданские права, справедливая судебная система, социальные реформы, верховенство закона, образовательные возможности, социальное равенство.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу возможностей Индекса социального развития Узбекистана как социального государства. В исследовании рассматриваются понятие социального государства, его правовые основы и место Республики Узбекистан в Индексе социального развития, социально-политические реформы, реализуемые в нашей стране, социальные права граждан и механизмы их защиты, а также принципы социальной справедливости и равенства. Анализируются тенденции развития Узбекистана как социального государства в сравнении с мировым опытом, изучаются основные факторы и перспективы общественного развития. Результаты исследования освещают правовые аспекты проведения справедливой и инклюзивной социальной политики в стране, анализируют реформы, которые необходимо реализовать в будущем, а

Hozirda dunyo bo'yicha 195 ta davlatlar mavjud bo'lib, har bir davlatining o'z davlat boshqaruvi, hamda siyosiy yo'llari bor. Ijtimoiy davlat tushunchasi haqida so'z ketganida ijtimoiy sohani oliy darajada e'tibor qaratadigan, fuqarolarning teng huquqliligi, tabaqalashtirishga yo'l qo'yilmasligi, har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishishi, ijtimoiy tengsizliklarni yumshatish va muhtoj qatlamga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq davlat budjetini adolatli taqsimlashga qaratilgan jamiyat tushuniladi.

Dunyoning 170 ta davlatdagi ijtimoiy taraqqiyotga oid ko'rsatkichlarning 13 yillik davrini (2011-2023-yillar) qamrab olib, ijtimoiy va atrof-muhitga oid ko'rsatkichlarni qamrab oluvchi eng yirik baholash tizimlaridan biri bo'lgan Ijtimoiy taraqqiyot indeksida O'zbekiston Respublikasi 2024-yilda 81-o'rinni egalladi[1].

Ijtimoiy taraqqiyot indeksida 3 ta yo'nalishda ko'rsatkichlar hisoblanib, ular quyidagilardan iboratdir: Asosiy insoniy ehtiyojlar (Basic Human Needs), Farovonlik asoslari (Foundations of Wellbeing), Imkoniyatlar (Opportunity). Ijtimoiy taraqqiyot indeksining rasmiy saytida jadval ko'rinishida o'z aksini topadi[2].

Quyida yurtimizning Ijtimoiy taraqqiyot indeksi(Social Progress Index)da **Imkoniyatlar (Opportunity)** yo'nalishidagi o'rni haqida shaxsiy fikrlarimizni ma'lum qilamiz.

Birinchidan, indeksning **Imkoniyatlar (Opportunity)** yo'nalishi aholining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni baholaydi. U quyidagi to'rtta kichik ko'rsatkichdan iborat: **shaxsiy huquqlar**, fuqarolik erkinliklari, inson huquqlari va adolatli sud tizimi, **shaxsiy erkinlik va tanlov**, din, so'z va yig'ilish erkinligi kabi huquqlar, **inklyuzivlik (qamrab olish)**: ayollar, ozchiliklar va boshqa ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyatlar, **yuqori darajali ta'limga kirish**, oliy ta'lim va kasbiy malaka oshirish imkoniyatlari va shu kabi sohalarni qamrab oladi.

Ikkinchidan, indeksning Huquqlar va ovoz berish yo'nalishida davlatning tomonidan fuqarolar va ijtimoiy guruhlarining huquq va erkinliklarini himoya qilinganlik kafolotlari, qonunlar qay darajada shaffof va qat'iy ijro etilishi hamda davlat boshqaruvining xolisligi, fuqarolarning adolatga kirish imkoniyati, mulkiy huquqlar, mehnat erkinligi, harakat erkinligi, jismoniy daxlsizlik huquqlari va diniy e'tiqod erkinligidan qay darajada foydalanilishi, saylov huquqi va saylov jarayonlarining adolatliligi kabilari baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida: "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l

qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.”[3], 35-moddasida: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.”[4], 128-moddasida: “O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.”[5] belgilab qo'yilgandir.

O'zbekiston Respublikasi nafaqat o'zining fuqarolarini balki, uning hududidagi barcha insonlarga tadbiq qilinadi, ya'ni uning hududida bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham O'zbekiston Respublikasi hududidagi buzilgan huquqlari va erkinlarini qayta tiklashni kafolatlaydi. Shuningdek, saylov tizimining odilligi, shaffof va har bir ovozning tengligi prinsiplarining mavjudligi, har bir fuqaroning siyosiy hayotga befarq bo'lmasligi, saylov huquqidan erkin foydalanish ularning kelajagi uchun poydevor ekanligini anglab yetganligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, indeksning erkinlik va tanlov imkoniyatlari yo'nalishida ayollardagi erta turmush darajasi, ayollarning oila qurish darajasi, aholi o'rtasidagi ishsizlik darajasi, davlat sektoridagi korrupsiya darajasi, shuningdek, aholining o'z shaxsiy hayotidagi tanlash erkinligidan foydalana olish imkoniyatidan qoniqish darajasi ko'rsatkichlari bilan bahonadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida: “Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi[6]. va 43-moddasida: “Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.”[7] Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasida: “Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.”[8]

Shu o'rinda takidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat boshqaruvida ijtimoiy davlat tamoyilini kiritgunga qadar ham bu yo'nalishlarni alohida e'tibor qilgan holda o'z islohotlari va siyosatini olib borgan. Xalq manfaatlari birinchi o'rinda turgan davlat sifatida bu yo'nalishlarning e'tiborsiz qolishi mumkin emas edi. Ishsizlikni kamaytirish maqsadida yangi ish o'rnini yaratgan tadbirkorlarga davlat tomonidan ko'plab imtiyozlar (ma'lum muddatga ayrim soliqlardan ozod qilish, subsidiyalar ajratish va boshqalar) beriladi.

Hozirda, Kasb-hunarga o'qitish markazi negizida chet elga ishga ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin kasbga yo'naltirish markazlari tashkil etilishi mumkin. Chet elga ishga ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin kasbga yo'naltirish markazlari chet elga jo'nab ketayotgan fuqarolarni xorijiy mehnat bozorida talab etilgan mutaxassisliklar va xorijiy tillar bo'yicha qisqa muddatli o'qitish, qayta o'qitish va malakasini oshirish, shuningdek, professional kompetensiyasini test sinovdan o'tkazish va tasdiqlash ishlarining tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi[9].

To'rtinchidan, indeksning inklyuziv jamiyat yo'nalishida shaxslarni kamsitish, bezorilik, etnik zo'ravonlik, mazhablararo va diniy zo'ravonlikliklarni nisbati, bir jinsli oila qurish imkoniyatlari va fuqarolarning har qanday muammoga duch kelganda ularga yordam berishi mumkin bo'lgan yaqinlarining borligi kabi ijtimoiy so'rovnomalar orqali hamda real hisobotlar orqali aniqlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar." [10]

O'zbek xalqida azaldan bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona, degan maqolimiz bejiz aytilmagan. Yosh avlod ta'lim – tarbiyasi nafaqat ota–ona, maktab yoki mahalla, balki katta-kichik rahbarlar va butun jamoatchilik vakillarining muhim vazifasidir. O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, unda turli xildagi millat va din vakillari tinch va farovon istiqomat qiladi. Hech kim uning millati yoki din vakili bo'lgani uchun boshqalardan ayricha munosabat qilinmaydi. O'zbekiston xalqi mentaliteti uchun bir jinsli nikoh zid tushunchadir. Qonunlar ham xalq manfaatlarini va ravnaqi uchun yaratilishi va qabul qilinishini inobatga olgan holda bir jinsli nikohga ruxsat berilmagan, hamda faqat erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi bilan oila quriladi.

Beshinchidan, indeksning oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishida xalqning akademik erkinlikka munosabat, ayollarning ta'lim olishdagi erkinlik, nufuzli oliy ta'lim muassalarning mavjudligi kabilar orqali baholanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida: "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega." [11] deb belgilab qo'yilgani barchaga ma'lum. Ta'lim olishda erkak va ayollar birga taxsil olishadi, hamda ta'lim olishi va boshqa munosabatlar jinsidan qattiq nazar barchaga teng imkoniyatlar yaratilgan.

Ayollarning ta'lim olishini yaxshilash maqsadida, hukumat qaroriga ko'ra, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan va o'qiyotgan xotin-qizlarga bazaviy to'lov-kontrakt (stipendiyasiz) summalari to'liq to'lab berilish amaliyoti keng qo'llanilmoqda.

Buyuk Britaniyaning nufuzli QS Quacquarelli Symonds xalqaro reyting agentligi dunyodagi eng yaxshi universitetlar reytingi – QS World University Rankings-2025 natijalarini e’lon qildi. Unga ko’ra, ilk bora O’zbekiston Respublikasining ikkita oliy ta’lim muassasalari bo’lgan – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti 547-o’rindan hamda Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti 781–790-o’rindan bilan munosib joy egalladi[12]

Oltinchidan, O’zbekiston Respublikasida har bir fuqaroga adolatli sud tizimidan foydalanish huquqi berilganligi mamlakatning huquqiy davlat sifatidagi rivojlanish jarayonida muhim o’rin tutadi. Ushbu huquq O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida mustahkamlangan bo’lib, har bir shaxs o’z huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligi ta’kidlanadi[13]. Adolatli sud tizimi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi va davlatning demokratik tamoyillarga sodiqligini namoyish etadi.

Shu bilan birga, O’zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasiga muvofiq, har bir shaxs o’z huquqlari bo’yicha adolatli va ochiq sud muhokamasiga ega bo’lishi kerakligini kafolatlaydi[14].

O’zbekiston Respublikasida har bir fuqaro uchun adolatli sud tizimidan foydalanish huquqi qonuniy jihatdan kafolatlangan va uning to’liq amalga oshirilishi uchun har doim qo’shimcha islohotlar bilan to’ldirib borilmoqda. Huquqiy asoslarning mavjudligi sud tizimining samaradorligini ta’minlashga, takomillashtirishga yetarli. Adolatli sud tizimi fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bilan birga, davlatning huquqiy imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston Respublikasida har bir fuqaro uchun ijtimoiy davlat tamoyillari va adolatli sud tizimidan foydalanish huquqining ta’minlanishi mamlakatning huquqiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim yutuqlarni aks ettiradi. Ijtimoiy taraqqiyot indeksining “Imkoniyatlar” yo’nalishi bo’yicha tahlillar shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston shaxsiy huquqlar, fuqarolik erkinliklari, adolatli sud tizimi, inklyuzivlik va ta’limga kirish imkoniyatlari kabi sohalarda sezilarli islohotlarni amalga oshirgan. Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklar, shuningdek, davlatning ijtimoiy adolat tamoyillariga sodiqligi fuqarolarning munosib turmush darajasiga erishishi va ijtimoiy tengsizliklarni yumshatishga xizmat qiladi. Biroq, adolatli sud tizimi va ijtimoiy imkoniyatlarning to’liq ta’minlanishi uchun davlat boshqaruvida shaffoflikni yanada oshirish, raqamli texnologiyalardan kengroq foydalanish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish kabi qo’shimcha islohotlar zarur. O’zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqsadlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan birga, davlatning global miqyosda huquqiy va ijtimoiy imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib,

ijtimoiy taraqqiyot va adolatli sud tizimi O'zbekistonning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.socialprogress.org/social-progress-index>
2. https://public.tableau.com/shared/S6XW75WJ5?:display_count=y&:origin=viz_share_link&:embed=y
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
8. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi// 01.09.1998.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05-aprel 2021-yildagi 183-sonli "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
12. <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
14. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.